

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

ILM-FAN VA ILMIY FAOLIYAT TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-iyulda qabul qilingan

Senat tomonidan 2019-yil 11-oktabrda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlari

Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy prinsiplari

Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy prinsiplari:

ilmiy ijod va axborot erkinligi;

samaradorlik va ijodiy raqobat;

manfaatdorlik va rag'batlantirish;

ilmiy ekspertizaning xolisligi;

inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslikdan iboratdir.

4-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlari

Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlari:

ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va resurslarni maqsadli yo'naltirish;

davlat ilmiy dasturlarini ishlab chiqish, asoslantirilgan tashabbus va loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash;

ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste'dod egalarini tayyorlab borish;

intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishni oqilona oshirib borish;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash hamda undan manfaatdorlikni oshirish;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining axborot makoni bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir.

2-bob. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini tartibga solish**5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasi asosiy yo'nalishlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlaydi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasi infratuzilmasining shakllantirilishi hamda uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi;

davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirishda maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni baholash tartibini tasdiqlaydi;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish tartibi hamda davlat ishtirokidagi jamg'armalarni tashkil etish tartibini belgilaydi;

ilmiy faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish va rag'batlantirishni ta'minlaydi;
ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarni berish tartibini belgilaydi;

 *LexUZ sharhi*

Qarang: "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida nizom" (23.06.2017, ro'yxat raqami 2894), "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizom" (03.06.2016, ro'yxat raqami 2793).

axborot makonida ilm-fan va texnologiyalar asoslari, yutuqlarini ommalashtirish, shuningdek ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid tegishli tadbirlarni targ'ib etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Vakolatli davlat organi:

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantiradi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, ilmiy tashkilotlar, oliy ta'lim, axborot-tahlil muassasalari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari, ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi va ularning ijrosini nazorat qiladi, ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlar ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi loyihalar tanlovini o'tkazadi va ularni moliyalashtiradi;

ilmiy loyihalar bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi, davlat ro'yxatini yuritadi, bajarilishini monitoring qiladi va ular yuzasidan hisobotlar qabul qiladi;

Noyob ilmiy obyektlar ro'yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi;

 *LexUZ sharhi*

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 94-son qarori bilan tasdiqlangan "Noyob ilmiy obyektlarni aniqlash, ularni saqlash va monitoringini olib borish tartibi to'g'risida nizom".

o'zaro manfaatli xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga chet el investitsiyalarini jalb qilishga ko'maklashadi;

ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtiradi.

 *LexUZ sharhi*

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi to'g'risida nizom".

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'z vakolatlari doirasida:

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, davlat ilmiy dasturlari, shuningdek xalqaro dasturlarni shakllantirish bo'yicha takliflar beradi;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

ilmiy faoliyat subyektlari uchun ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari, noyob ilmiy obyektlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish bilan bog'liq zarur shart-sharoitlarni yaratadi;

ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini oshiradi va ilmiy darajali kadrlar tayyorlaydi;

ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga ko'maklashadi va ularning egalarini rag'batlantiradi, shuningdek yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ularning samarali ilmiy faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

ilmiy tashkilotlar xodimlarini davlat va xalqaro mukofotlarga taqdim etadi;

xorijiy davlatlar va mamlakatimiz ilm-fani yutuqlarini o'rganadi, tahlil qiladi, ommalashtiradi hamda targ'ib qiladi, ulardan O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini yo'lida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi; chet el fanlar akademiyalari, ilmiy tashkilotlari va jamg'armalari bilan hamkorlikni amalga oshirish, xalqaro ilmiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda qatnashadi.

 LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-maydagi 331-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ustavi".

8-modda. Oliy ta'lim tizimi muassasalarining, shuningdek bo'ysunuvida ilmiy tashkilotlar bo'lgan vazirlik, idoralar hamda tashkilotlarning ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari

Oliy ta'lim tizimi muassasalari, shuningdek bo'ysunuvida ilmiy tashkilotlar bo'lgan vazirlik, idoralar va tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida:

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishda qatnashadi;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar kiritadi;

davlat ilmiy dasturlari, shuningdek xalqaro dasturlarni ishlab chiqishda qatnashadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi;

o'z bo'ysunuvidagi tegishli ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda samarali hamda raqobatbardosh ilmiy faoliyat yuritilishini ta'minlaydi;

tegishli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy darajali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi, ilmiy faoliyat yurituvchilarni rag'batlantirib boradi;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

o'z bo'ysunuvidagi ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlab boradi;

ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtiradi va ular egalarini rag'batlantiradi, shuningdek yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ularning samarali ilmiy faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

ilm-fan va texnologiyalar asoslari, yutuqlarini ommalashtirish, shuningdek ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid tegishli tadbirlarni targ'ib etishda qatnashadi.

9-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida:

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishda qatnashadi;

ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda qatnashadi;

ilmiy faoliyatni rivojlantirish va uning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga ko'maklashadi;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

ilmiy ishlanmalarni yaratish, qo'llash va ommalashtirish bilan bog'liq tizimli ishlarni tashkil etadi;

mahalliy axborot makonida ilm-fan va texnologiyalar asoslarini, yutuqlarini, shuningdek ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid tegishli tadbirlarni targ'ib etishni tizimli ravishda yo'lga qo'yadi.

10-modda. Fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi ishtiroki

Fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida:

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish bo'yicha takliflar berishi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflar berishi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi hamda ularga ko'maklashishi;

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid ma'lumotlarni tarqatishi, ommalashtirishi va targ'ib etishi mumkin.

11-modda. Yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etish

Yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etish:

tegishli davlat dasturlarini ishlab chiqish;

ta'lim tashkilotida iste'dodlarni aniqlash, tanlash, tarbiyalash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar olib borish;

tegishli yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablar, maktab-internatlar, maxsus sinflar, markazlar va o'quv kurslari tashkil etish;

ta'lim jarayonida egallangan bilimlarni kundalik turmush va kasbiy faoliyatda samarali qo'llay olishga qaratish;

ta'lim oluvchilar o'rtasida turli tanlovlar uyushtirib borish va rag'batlantirish;

chet el yetakchi ilmiy tashkilotlari va ta'lim muassasalariga magistratura va doktorantura dasturlarini o'tash, malaka oshirish, tajriba orttirishga yuborish orqali va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Yosh olimlarning ilmiy tashkilotlar va ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlardagi ilmiy uyushmalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarida yosh olimlar va talabalarning ilmiy faoliyat yuritishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyuldagi 559-son "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-oktabrdagi 832-son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar innovatsiya markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.

3-bob. Ilmiy faoliyat va uning subyektlari

12-modda. Ilmiy faoliyat

Ilmiy faoliyat obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqida yangi bilimlar olish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, shuningdek muayyan faoliyat natijasida yaratilgan obyektlarni o'rganishga yo'naltirilgan nazariy va (yoki) tajribaga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar amaliy maqsadlarga erishish va aniq vazifalarni hal etish uchun asosan yangi bilimlar va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

13-modda. Ilmiy faoliyat subyektlari

Ilmiy faoliyat yurituvchi jismoniy va yuridik shaxslar ilmiy faoliyat subyektlari hisoblanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasidagi ilmiy faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ilmiy tashkilotlari, shuningdek davlat ta'lim muassasalari tarkibidagi ilmiy va ilmiy-texnikaviy tuzilmalarda faoliyat yurituvchi xodimlar lavozimlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

14-modda. Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar:

ilmiy faoliyat turi, yo'nalishi va vositalarini tanlash;

ilmiy faoliyatni yakka tartibda yoki jamoaviy asosda olib borish;

inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ilmiy faoliyatda qatnashishni rad qilish;

bajargan ishining darajasi va sifatiga ko'ra moddiy rag'bat olish, shuningdek ilmiy faoliyati natijalarini amaliyotga tatbiq etishdan mukofot yoki daromad olish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy loyihalar bo'yicha tanlovlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etish;

o'zi tomonidan yoki hammualliflikda bajarilgan ilmiy ishlanmalar natijalaridan, agar ular davlat, xizmat va tijoratga oid yoki qonun hujjatlariga muvofiq muhofaza qilinadigan boshqa sirlardan tarkib topmagan bo'lsa, erkin foydalanish, ularni tarqatish va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

ilm-fan sohasida tadbirkorlik faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, maslahatchi va ekspert bo'lish;

agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ilmiy faoliyat natijalarini ilmiy ma'ruza, maqola, monografiya va dissertatsiya himoyasi ko'rinishida hamda boshqa shakllarda taqdim etish huquqiga ega.

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar:

inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslikka;

ko'chirmachilikka yo'l qo'ymaslikka, o'zgalarning ilmiy ishlanmalarini o'zlashtirmaslikka va yolg'on ma'lumotlarga asoslanmaslikka;

intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariga rioya qilishga majburdir.

15-modda. Ilmiy faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarning mehnat huquqlari

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar mehnatiga haq to'lash, ularga yillik haq to'lanadigan mehnat ta'tili, shuningdek ijodiy ta'til berish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ilmiy tashkilotlarida ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslarga qirq sakkiz ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan hamda moddiy yordamni ko'zda tutadigan mehnat ta'tili beriladi.

Davlat ilmiy tashkilotlarida ilmiy xodimlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalarida, shu jumladan chet elda amaliyot o'tashlari yoki malaka oshirishlari uchun bir yilgacha bo'lgan muddatga ta'til beriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 258-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijodiy ta'tillar berish tartibi".

16-modda. Ilmiy tashkilot

Asosiy faoliyat turi ilmiy faoliyat yuritishga yo'naltirilgan yuridik shaxs ilmiy tashkilot hisoblanadi.

Ilmiy tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari va boshqa tashkilotlarni, shuningdek noyob ilmiy obyektlarni tashkil etish huquqiga egadir.

17-modda. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy faoliyat yuritish

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni bilan birga ilmiy faoliyat ham yuritiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari tegishli yo'nalishlarda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari shart.

Oliy ta'lim muassasalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari va boshqa tashkilotlarni ta'sis etish, shuningdek noyob ilmiy obyektlarni tashkil etish huquqiga egadir.

Oliy ta'lim muassasalari ilmiy faoliyatga milliy va xalqaro darajadagi yetuk olimlar, ilmiy tashkilotlar vakillarini jalb etish, yetakchi milliy va xorijiy ilmiy tashkilotlar hamda ta'lim muassasalarida amaliyot o'tashni tashkil qilish huquqiga egadir.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirishga oliy ta'lim muassasalari, bo'ysunuvida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi mas'uldir.

Oliy ta'lim muassasasining ilmiy faoliyatini baholashda uning ilmiy salohiyati, shu jumladan ilmiy ishlanmalarning natijadorligi, ilmiy maktablarning yaratilganligi, ilmiy darajali pedagog kadrlar salohiyati, shuningdek uning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissi inobatga olinadi.

18-modda. Ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar

Ilmiy faoliyat asosiy faoliyat turiga kirmaydigan tashkilotlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga hamda ta'sis hujjatlari (nizomlari)da belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida o'z tarkibida ilmiy tuzilmalarni tashkil etishga haqlidir.

4-bob. Ilmiy faoliyatni tashkil etish va baholash

19-modda. Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasi, ilm-fan va ta'lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash maqsadida ishlab chiqiladi.

20-modda. Davlat ilmiy dasturlari

Davlat ilmiy dasturlari ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari, ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlari va ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqiladi va davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy loyihalardan iborat bo'ladi.

Ilmiy loyihalarni ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlariga kiritish tanlovlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlari dolzarb muammolarni hal etish uchun ishlab chiqiladi va aniq mahsulotga davlat buyurtmasi berish asosida bajariladigan ilmiy loyihalardan iborat bo'ladi.

Ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlar tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish va yangi ilmiy ishlanmalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy loyihalardan iborat bo'ladi. Ular mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Davlat ilmiy dasturlari loyihalarining mavzulari, yo'nalishlari va ularning ijrosi to'g'risidagi axborot majburiy tartibda ommaviy axborot vositalari va vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

21-modda. Ilm-fan va ta'limning uzviy bog'liqligi

Ilm-fan va ta'limning uzviy bog'liqligi:

ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish;

ta'lim oluvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish;

pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirib borish,

“ustoz — shogird” maktab va an'analarini mustahkamlash, ilmiy izlanuvchilarning iqtidorli kelajak avlodini shakllantirish;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab borish orqali ta'minlanadi.

22-modda. Ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligi

Ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligi:

innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish hamda qo'llash uchun qulay muhitni shakllantirish;

innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdorlikning tashkiliy-huquqiy tizimini takomillashtirib borish;

tadbirkorlik subyektlari huzurida tegishli yo'nalishlarda ilmiy tashkilotlarning faoliyatini yo'lga qo'yish, ilmiy faoliyat yuritayotgan xorijiy hamkorlar bilan izchil va samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ishlab chiqarish tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlaridan innovatsion mahsulotlar va xizmatlarga buyurtmalar olish;

innovatsion infratuzilmani (texnologiya parklari, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur jamg'armalari, biznes-inkubatorlar va boshqalarni) rivojlantirish;

xususiy ilmiy tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish;

innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;

soliq imtiyozlarini qo'llash orqali ta'minlanadi.

23-modda. Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash

Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik asosida amalga oshiriladi.

Tayanch doktorantura va doktorantura doirasidagi ilmiy faoliyat ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib boriladi.

Mustaqil izlanuvchilik doirasidagi ilmiy faoliyat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib boriladi.

 LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari"ning 3-bandi.

24-modda. Ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar

Tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)), fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalarini, professor, dotsent va katta ilmiy xodim ilmiy unvonlarini berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

 LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari", "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risida nizom".

Chet davlatlarda olingan ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarning O'zbekiston Respublikasida tan olinishi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

 LexUZ sharhi

Qarang: "Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida nizom"ning 59-bandi (23.06.2017, ro'yxat raqami 2894), Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 25-iyuldagi 283-son qarori bilan tasdiqlangan "Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekivalentligini qayd etish) tartibi to'g'risida nizom", "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizom"ning 11-bandi (03.06.2016, ro'yxat raqami 2793).

25-modda. Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

Ilmiy daraja olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ilmiy tashkilot va ta'lim muassasasi qoshida tegishli ixtisoslik bo'yicha tuzilgan ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashda himoya qilinadi.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zolarining yarmidan ko'pi mazkur kengashni tuzgan, ilmiy tashkilot va ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan olimlardan iborat bo'lishi shart.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash jamoatchilik asosida faoliyat olib boradi va dissertatsiyaning tanlangan ixtisoslikka mosligi, ekspertizaning sifati va xolisligi, qabul qilingan qarorning asoslantirilganligi uchun mas'ul hisoblanadi.

 LexUZ sharhi

Qarang: "Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash to'g'risida nizom" (23.06.2017, ro'yxat raqami 2893).

26-modda. Ilmiy ekspertiza

Ilmiy ekspertiza ilmiy loyiha bo'yicha asoslantirilgan qaror qabul qilish maqsadida uni o'rganish, tahlil qilish, baholash va xulosa tayyorlashga qaratilgan faoliyatdir.

Ilmiy ekspertiza:

qatnashchilarining mustaqilligi va huquqiy himoyalanganligi;

ilmiy loyiha ilmiy yondashuvda, xolis, to'liq va har tomonlama o'rganilishi;

ekspertiza natijalarining asoslantirilganligi;

ekspertlarning chuqur bilimga egaligi va yuksak darajada o'z ishining ustasiligi;

qonun hujjatlariga muvofiq davlat, xizmat va tijorat sirlariga rioya qilgan holda ekspertiza natijalarining ochiqligi;

jamoat, texnika, ekologiya xavfsizligi, milliy va xalqaro standartlarga rioya qilish tamoyillariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Ilmiy ekspertizani amalga oshirish jarayonida uning natijalaridan shaxsan manfaatdor bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ilmiy ekspertiza jarayonida qatnashgan va qabul qilingan xulosa bilan kelishmagan ekspert o'zining asoslantirilgan fikrini mazkur xulosaga qo'shib qo'yishi mumkin.

Ilmiy ekspertizani o'tkazishga chet el mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalar davlat ilmiy ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

Ilmiy ekspertiza ushbu masala bo'yicha vakolati bor davlat tashkilotining qaroriga ko'ra o'tkaziladi.

27-modda. Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy loyihalar monitoringi

Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy loyihalar monitoringi ularning tasdiqlangan rejaga ko'ra bajarilishini, moliyaviy mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishini, belgilangan muddatlarda hisobotlar taqdim etilishini va olingan natijalarning samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi.

Davlat buyurtmasi asosida bajarilayotgan ilmiy loyihalar monitoringi natijalari xulosalaridan ilmiy yo'nalishlarning istiqbolini belgilash, ilmiy loyihalarni moliyalashtirishni davom ettirish yoki to'xtatish bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydalaniladi.

Davlat buyurtmasi asosida bajarilayotgan ilmiy loyihalarning natijalari monitoringi vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy loyihalar bo'yicha hisobotlar vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi.

28-modda. Ilmiy ishlanmalarni baholash

Ilmiy ishlanmalarni baholash ilmiy faoliyat natijalari qiymatini aniqlashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ilmiy ishlanmalarni baholash baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 8-maydagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan "Baholash faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizom".

Baholangan ilmiy ishlanmalardan:

tashkilotlarning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shish va royalti miqdorini aniqlash;

litsenziya kelishuvlarini tuzish;

sarflangan mablag'larning samaradorligini aniqlash va boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin.

Ilmiy ishlanmalarni baholash natijalari rasmiylashtiriladi va kelgusida foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

29-modda. Ilmiy faoliyatning axborot ta'minoti

Ilmiy faoliyat subyektlari, davlat, xizmat, tijorat yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotdan tashqari, ilmiy, statistik va boshqa axborotni erkin tarzda izlash, olish va tarqatish huquqiga egadir.

Ilmiy, statistik va boshqa axborotlar, shu jumladan milliy va xalqaro axborot jamg'armalarida, tizimlarida, ma'lumotlar banki va bazalarida joylashtirilgan ma'lumotlar bilan tanishish hamda ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq belgilanadi.

Vakolatli davlat organi va boshqa davlat boshqaruvi organlari o'z bo'ysunuvidagi ilmiy tashkilotlarni ilmiy axborot bilan ta'minlaydi, ilmiy hisobotlar va tugallangan ilmiy ishlar ma'lumotlar bazalarini yuritadi, shuningdek ilmiy faoliyat natijalarini ilmiy axborot manbalarida chop etish va ulardan amaliy foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Davlat boshqaruvi organlari ilmiy axborotni yig'ish, to'plash, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishni amalga oshiruvchi ilmiy tashkilotlar, axborot-kutubxona markazlari faoliyatiga yordam ko'rsatadi, ilmiy mahsulotlar, shu jumladan ilmiy jurnallar, kitoblar va boshqa bosma nashrlarni chop etish hamda tarqatish, milliy va xalqaro ilmiy nashrlar, axborot jamg'armalari, tizimlari, ma'lumotlar banki va bazalariga kirishga ko'maklashadi.

30-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyatning milliy axborot makoni bilan uzviy bog'liqligi

Ilm-fan va ilmiy faoliyatning milliy axborot makoni bilan uzviy bog'liqligi:

ilmiy-axborot infratuzilmasini takomillashtirish;

mulkchilik shaklidan qat'i nazar har qanday axborot resurslaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda erkin foydalanish;

ilm-fan va texnologiyalar asoslari, yutuqlarini ommalashtirish, shuningdek ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid tegishli tadbirlarni targ'ib etish chora-tadbirlarini belgilash;

ixtisoslashtirilgan ilmiy nashrlar, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar tuzish va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va davlat ishtirokidagi jamg'armalar hisobidan to'liq yoki qisman moliyalashtiriladigan nashrlar, ommaviy axborot vositalarida ilm-fan va texnologiyalar asoslari, yutuqlari, ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasiga oid tadbirlar haqida axborotni bepul tarqatish tartibini belgilash;

global axborot makonining tegishli resurslaridan foydalanishning huquqiy va iqtisodiy choralarini ko'rish hamda boshqa usullar orqali ta'minlanadi.

31-modda. Ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish


Ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish foyda olish maqsadida ilmiy faoliyat natijalarini fuqarolik muomalasiga kiritish jarayonidir.

Ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish:

ilmiy faoliyat natijalarini qo'llagan holda yaratilgan tovarlarni (bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

ta'sischisi yoki ta'sischilaridan biri ustav jamg'armasiga ulush sifatida intellektual mulk obyekti yoki tayyor texnologiyani kiritgan tashkilot (yoki ixtisoslashtirilgan affillangan tashkilot) bo'lgan tijorat tashkilotlarini tashkil etish;

intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish va mazkur obyektlardan foydalanish huquqini royalti to'lovlariga asoslangan litsenziya shartnomalarini tuzish orqali, shu jumladan ularni keyinchalik ushbu huquqlar oluvchisi tomonidan tijoratlashtirish sharti bilan berish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi.

 LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

32-modda. Noyob ilmiy obyekt

Ilmiy faoliyatni samarali yo'lga qo'yish uchun alohida ahamiyatga ega, mamlakatda yagona bo'lgan, ilmiy izlanishlarda foydalanilayotgan, tegishli sohalarda mukammal izlanishlar olib borish imkonini beradigan ilmiy asbob-uskunalar, nodir to'plamlar va boshqa kamyob obyektlar noyob ilmiy obyekt hisoblanadi.

O'z yurituvida noyob ilmiy obyekt bo'lgan tashkilot rahbari uni ishchi holatda saqlash, unga zarur xizmatlarni ko'rsatish, undan unumli foydalanish, ajratilgan moliyaviy mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishi, shuningdek noyob ilmiy obyektlar bo'yicha ilmiy va moliyaviy hisobotlarning vakolatli davlat organiga topshirilishi uchun javobgardir.

 LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 94-son qarori bilan tasdiqlangan "Noyob ilmiy obyektlarni aniqlash, ularni saqlash va monitoringini olib borish tartibi to'g'risida nizom".

33-modda. Ilmiy asbob-uskunalaridan jamoaviy foydalanish markazi

Ilmiy asbob-uskunalaridan jamoaviy foydalanish markazi ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi qoshida faoliyat yurituvchi, ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo'lgan ilmiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va ulardan ko'pchilik foydalanishi mumkin bo'lgan, tegishli malakali mutaxassislariga ega tuzilmadir.

5-bob. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish

34-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish yo'nalishlari

Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish:

bazaviy moliyalashtirish;

ilmiy loyihalarni moliyalashtirish;

stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura doirasidagi ilmiy izlanishlarni moliyalashtirish;

noyob ilmiy obyektlarni saqlashni moliyalashtirish;

ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlarini moliyalashtirish yo'nalishlarida amalga oshiriladi.

35-modda. Bazaviy moliyalashtirish

Bazaviy moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davlat ilmiy tashkilotlariga nisbatan qo'llaniladi. Bunday tashkilotlar ro'yxati vakolatli davlat organining tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat ilmiy tashkilotlarining ilmiy xodimlari mehnatiga to'g'ridan to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan haq to'lash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-son qarori bilan tasdiqlangan Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida nizom.

36-modda. Ilmiy loyihalarni moliyalashtirish

Ilmiy loyihalarni moliyalashtirish:

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti;

mahalliy budjet;

maxsus va maqsadli jamg'armalar;

xo'jalik yurituvchi subyektlar;

ish beruvchi;

xalqaro tashkilotlar va homiyilar;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari, ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlar doirasida bajariladigan loyihalarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

37-modda. Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura doirasidagi ilmiy izlanishlarni moliyalashtirish

Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura doirasidagi ilmiy izlanishlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

38-modda. Noyob ilmiy obyektlarni saqlashni moliyalashtirish

Noyob ilmiy obyektlarni saqlashni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi hamda joriy ta'minlash, shu jumladan binolar, asbob-uskunalar ishchi holatda saqlash, ashyolar bilan ta'minlash, ma'muriy va yordamchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi.

39-modda. Ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlarini moliyalashtirish

Ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

40-modda. Ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari

Yuridik va jismoniy shaxslar tashabbusi bilan ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari tuzilishi mumkin.

Jamg'armalarning ta'sis hujjatlarida mablag'larni shakllantirish, yo'naltirish, taqsimlash, ilmiy izlanishlarning (mavzularning) loyihalari va natijalarini baholash, hisobot berish tartibi aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Jamg'armalar o'z faoliyati haqida yillik hisobotni e'lon qilib borishi shart.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

41-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorligi milliy ilmiy maktablarning jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishi, dunyo ilm-fani va texnologiyalari ilg'or yutuqlaridan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirishda foydalanish, chet el investitsiyalari, chet ellik yetuk ilmiy va texnologiya markazlari, olimlar, mutaxassislarni mamlakatga jalb etish, ilmiy faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarning xorijda tajriba va malaka orttirishlarini ta'minlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Davlat O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalari, shuningdek xalqaro ilmiy dasturlar va loyihalar doirasidagi ilmiy faoliyatning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.

Ilmiy faoliyat subyektlari xalqaro va xorijiy ilmiy hamda texnologiya tuzilmalariga a'zo bo'lish, xalqaro ilmiy dasturlar va loyihalarda qatnashish, cheklovlar bo'lmagan hollarda, O'zbekiston Respublikasi hududida hamda uning tashqarisida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar ishtirokidagi ilmiy tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

42-modda. Nizolarni hal etish

Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

43-modda. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

44-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

Vakolatli davlat organi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

45-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

46-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun 15-moddasining ikkinchi qismi 2020-yil 1-yanvardan e'tiboran amalga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 29-oktabr,
O'RQ-576-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2019-y., 03/19/576/3970-son)